

**SILGA CHALINGAN BEMORNIIG EPIDEMIOLOGIK XAVFINI  
BILDIRUVCHI MEZONLARI VA OLDINI OLISH CHORALARI**

**Djuraeva M.E., Rasulova K.M., Muxiddinova G.A.**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Mikrobiologiya, jamoat  
salomatligi, gigiyena va menejment kafedrası. Termiz, O‘zbekiston**

Sil, dunyo miqyosida jiddiy va dolzarb tibbiy-ijtimoiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Yer yuzida yuz berayotgan to‘fonlar, ekologik fojialar, qashshoqlik, ijtimoiy o‘zgarishlar sil kasalligining ko‘payib ketishiga va epidemiya holatiga aylanishiga olib kelmoqda.

Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkilotining xabar berishicha, yer yuzida taxminan 2,1 milliard odam sil bilan zararlangan.

Yer yuzida sil kasalligi bilan kasallanish turli mamlakatlarda 100000 aholiga quyidagicha: Afrikada - 179,6; Amerikada – 32,7; Sharq va O‘rta Yer dengizida – 74,7; Yevropada – 29,6; Osiyo va janubiy Sharqda – 146,7; Tinch okean orti davlatlarida - 54,5 ga to‘g‘ri keladi.

Sil bilan kasallanish va o‘limning ko‘payishida boshqa qashshoq davlatlardan kelayotgan aholi va OIV-infeksiyasining tarqalishi muhim ahamiyatga ega.

Rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarda OITS bilan kasallanish zamirida silning rivojlanish davri tezlashmoqda.

Sildan kasallanish va o‘lim ko‘rsatkichlarining eng yuqori darajasi 2002-yilda (100 ming aholiga nisbatan kasallanish – 79,6 va o‘lim – 12,3 ga teng) kuzatildi, ammo so‘ngi 5 yilda kasallanish 14,7% ga (79,1 dan 67,5 ga 100 ming aholiga), o‘lim – 38,2% ga (12,3 dan 7,6 ga 100 ming aholiga) kamayishiga erishildi. Respublikamizda sil bo‘yicha epidemik vaziyat tangligi saqlanib qolgani holda, shuni ta’kidlash joizki, ma’lum darajada kasallikning kamayish tendensiyasi kuzatilyapti. Keltirilgan ko‘rsatkichlarga asoslangan holda sildan kasallanish va o‘lim ko‘rsatkichi shu darajada ketadigan bo‘lsa, 2015-yilda 100 ming aholiga nisbatan Respublikamizda kasallanish 60,4 ga, o‘lim esa 3,9 ga to‘g‘ri kelishi bashorat qilinmoqda (A.M.Ubaydullayev).

O‘zbekistonda har yili, qariyb 18-20 ming nafar kishi silning faol turlari bilan og‘riydi va 2 mingdan ko‘proq bemor vafot etadi.

Silga chalingan bemorniig epidemiologik xavfini bildiruvchi bir qator mezonlar mavjud: batsilla ajratish xususiyati, balg‘am ajratish va ularda nam xirillash

bo‘lishi, oilada bolalar va o‘smirlar yashashi, sil o‘chog‘ida yashovchi oila a‘zolari, sil bemori tomonidan sanitariya-gigiyena talablarini bajarishi.

Sil o‘chog‘ining atrofdagilarga xavf darajasini aniqlashda birinchi navbatda, sil bemorining bakteriya ajratish darajasini inobatga olish zarur. Hozirgi davrda ular nisbatan 3 guruhga bo‘linadi: 1) ko‘p miqdorda; 2) oz miqdorda; 3) rasmiy bakteriya ajratuvchilar.

Balg‘amda sil mikobakteriyasi bakterioskopik usulda yoki bakteriologik tekshirishda 20 va undan ko‘p koloniya topilsa, bemor ko‘p miqdorda bakteriya ajratuvchi hisoblanadi. Agar sil bakteriya balg‘amni faqat bakteriologik usulda 20 tadan kam koloniya topilsa, oz miqdorda bakteriya ajratuvchilar qatoriga kiritiladi. Rasmiy bakteriya ajratuvchilarda oldin bakteriya ajratgan, lekin hozir tekshirilganda, sil ko‘zg‘atuvchisi topilmaganlar hisoblanadi.

Shu munosabat bilan smlga qarshi dispanser DSENM va umumdavo tarmog‘i bilan birgalikda joylarda silga qarshi o‘tkaziladigan tadbirlarni kuchaytirishi zarur.

1. Bolalar muassasalari, bog‘cha, maktab, kolledj va axoli orasida sanitar targ‘ibot ishlarini olib borish.
2. Tuberkulyozni oldinini olish maqsadida BSJ vaksinasi bilan emlash ishlari olib borilishini nazorat qilish.
3. Aholini ovqatlanish tartibini nazorat qilishni, ularni to‘g‘ri ovqatlanish bo‘yicha tushuntirish ishlari olib borish.
4. Aholi orasida bemorni buyumlarini alohidalash, ular foydalangan buyumlarni zararsizlantirishni tushuntirish.
5. Bemor maxsus kaloriyali ovqatlanish ratsioniga amal qilishi haqida tushuntirish ishlarini olib borish.

Yuqoridagi tavsiyalar o‘z vaqtida bajarilsa va ular ustidan nazorat o‘z vaqtida olib borilsa, aholi o‘rtasida tuberkulyoz kasalligini kamaytirish mumkin.

Shuni ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda sil bilan kasallanish va o‘lim ko‘rsatkichlari Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Rossiya Federatsiyasiga qaraganda 1,5-2 barobar kam.

Sil epidemiologiyasining barcha yuqumli (infekzion) kasalliklarga xos bo‘lgan xususiyatlari bilan bir qatorda sil infeksiyasining alohida tabiatiga aloqador bir qancha jihatlari ham mavjud. Uning tarqalishi, shu infeksiya keltirib chiqaradigan ko‘pchilik xastaliklarning surunkali kechishi, odam organizmining kasallikka nisbatan immunobiologik holati o‘zgarishi shular jumlasidan. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga, aholining iqtisodiy, yashash va madaniy shart-sharoitlariga uzviy bog‘liqligi infeksiya tarqalishining eng muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Shu

sababli, sil qadimdan bir vaqtning o‘zida yuqumli va ijtimoiy-iqtisodiy xastalik hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi jadal rivojlanayotgan mamlakat hisoblanadi. Hamma joyda emlash va qayta emlash ishlari bajarilayotgan bo‘lsada, aholining sil bilan zararlanish darajasi yuqoriligicha qolmoqda. Shuni aytib o‘tish joizki, sil bilan zararlanganlarning hammasi ham kasal bo‘lavermaydi. Buning uchun tegishli ichki va tashqi salbiy sharoitlar bo‘lishi lozim.

Shunday qilib, silning epidemiologik ko‘rsatkichlari, asosan, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va xususan ilm-fan hamda sog‘liqni saqlash sohasidagi faoliyat ta‘sirida shakllanadi. Sil xastaligining asosiy epidemiologik ko‘rsatkichlari ancha pasaygan davlatlarda aholining turmush sharoitlari yaxshi bo‘ladi.

